



# QASHQADARYO VILOYATIDA AVTOMOBILLARGA XIZMAT KO'RSATISH KORXONALARIDA EHTIYOT QISMLARGA BO'LGAN EHTIYOJ HAJMINI ANIQLASH

Jumayev Shaxzod Shavkat o'g'li

Qarshi davlat texnika universiteti assistenti

[shaxzodj886@gmail.com](mailto:shaxzodj886@gmail.com)

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada Qashqadaryo viloyati Avtoservis korxonalarining rivojlanish holati, mavjud muammolar va uning istiqboli yuzasidan olib borilgan tadqiqotga bag'ishlangan. Qashqadaryoda Avtoservis korxonalarini ehtiyot qismlar va materiallar bilan ta'minlash va ehtiyot qismlarga bo`lgan ehtiyoj, milliy iqtisodiyotda transport tizimining tutgan o'rnni belgilash, mavjud muammolarni tizimlashtirish va rivojlanish istiqbollari bo'yicha ilmiy asoslangan takliflar ishlab chiqishdan iborat.

**Kalit so'zlar:** Avtomobil, avtoservis korxonasi, dillerlik punktlari, ehtiyot qismlar, avtomobil konstruktsiyasi, detal , uzel va agregatlar, avtomobil sanoati, texnik xizmat ko'rsatish va ta'mirlash.

## DETERMINING THE NEED FOR SPARE PARTS IN AUTOMOTIVE SERVICE ENTERPRISES IN THE KASHKADARYO REGION

**Abstract.** This article is devoted to a study on the development status, current problems and prospects of auto service enterprises in the Kashkadarya region. The aim is to provide auto service enterprises in Kashkadarya with spare parts and materials, determine the need for spare parts, determine the place of the transport system in the national economy, systematize existing problems and develop scientifically based proposals on development prospects.

**Keywords:** Automobile, car service company, dealerships, spare parts, car design, parts, components and assemblies, automotive industry, technical maintenance and repair.

### KIRISH

Davlatimiz avtomobilsozlik sanoatini jadal rivojlantirish bosqichidan o'tmoqda. Hozirgi davrda avtoservis korxonalarini ehtiyot qismlar bilan ta'minlanish yangi istiqbollari va samarali usul topish zaruriyatini talab qilmoqda. Chunki avvalgi mavjud bo'lgan ehtiyot qismlar bilan Avtobillarga xizmat ko'rsatish korxonalarini (ATXKS) ta'minlash tizimi izdan chiqib, hozirgi kunlarda dillerlik punktlari, avtoservislar, ehtiyot qismlar bilan savdo qiluvchi do'konlarning ta'minlanishi talab darajasida emas.



Avtoservis korxonalari, dillerlik punktlari va ehtiyot qismlar bilan savdo qiluvchi do‘konlarning ta’minlanishi yomon ahvolda ekanligining bir qator sabablari bor. Bularning asosiylaridan biri ehtiyot qismlarining qaysi turi qanday miqdorda zarur ekanligi haqidagi ma’lumotlarning yo‘qligi, bor bo‘lgan kichik ma’lumotlarning esa markazlashtirilgan holda taxlil etilmayotganligi, ularning kompyuterlashtirilgan hisoblash tizimi orqali o‘rganilmaganligidir.

Yetakchi avtomobil ishlab chiqaruvchi korxonalar, yetakchi avtomobil kompaniyalari tajribasini o‘rganish shuni ko‘rsatadiki, avtoservis korxonalarini ehtiyot qismlar bilan ta’minlashni muntazam yo‘lga qo‘yish mumkin. Buning uchun avtoservis korxonalarini ehtiyot qismlar bilan ta’minlashni boshqarish va zarur bo‘lgan ehtiyot qismlar miqdorini tahlil etish va rejalashtirish tizimini tashkil etish zarurdir. Bunday tizimni amalga oshirish uchun Respublika ekspluatatsiya sharoitidan kelib chiqqan holda avtomobilarning ekspluatatsion ishonchlilik sifatini o‘rganish asosida ishdan chiqayotgan detal, uzel va agregatlar haqida axborotlar yig‘ilib, ularni markazlashtirish, Axborot kommunikatsiya texnologiyalari yordamida o‘rganish va tahlil etish, rejalashtirish asoslarini o‘rnatish zarur. Yetakchi avtomobil konsernlari, bir qator olimlarning olib borgan tajribalarini o‘rganish shuni ko‘rsatadiki, ekpluatatsiyadan olingan statistik ma’lumotlarga asosan barcha ehtiyot qismlarni 3 ta A, B va C yoki X, Y va Z guruxlariga bo‘lish qabul qilingan. Birinchi usulda guruhlarga bo‘lish ehtiyot qismlarni sotilish ko‘rsatkichi bo‘yicha amalga oshiriladi.

A guruhi — qiymati bo‘yicha hamma sotilayotgan ehtiyot qismlarning 70-80 % tashkil etuvchi, lekin umumiylashtirish ehtiyot qismlar miqdorining oz qismini tashkil etgan detallar.

B guruhi — sotish hajmini 10-20 % tashkil etib, ehtiyot qismlar nomenklaturasining 30% miqdoridan kamroq qismini tashkil etgan detallar.

C guruhi — mahsulot aylanishida 5-10 % tashkil etib va ehtiyot qismlar nomenklaturasining asosiy qismini tashkil etuvchi detallar (1-jadval).

Ehtiyot qismlarni ikkinchi usulda guruhash detal zaxirasining narxiga qarab olib boriladi, masalan: qandaydir ehtiyot qismlar narxi avtomobil narxining 2% dan ortiq bo‘lsa — X guruhiga, 0.1-2% oralig‘ida bo‘lsa — Y guruhiga va narxi 0.1% dan arzon bo‘lsa — Z guruhiga kiritiladi (2-jadval). Ikkala usuldan biri tanlab olinib ehtiyot qismlarni foiziy nisbati bo‘yicha omborxonani ta’minlash maqsadga muvofiqdir.



### 1-jadval

Ehtiyyot qismlarni solishtirma hajm bo‘yicha egallagan miqdoriga ko‘ra guruhlanishi

Sotilish darajasi bo‘yicha guruh	Detal nomlari (%)	Bir nomdagи mahsulot sotilish qiymati (mln so‘m)	Mahsulotning aylanish foizi (%)
A	12	50 ortiq	82
B	19	10 ortiq	14
C	69	10 gacha	4
	100		100

### 2-jadval

Ehtiyyot qismlar zaxira hajmini qismlari bo‘yicha guruhlash

Zaxira darajasi bo‘yicha guruh	Detal nomlari (%)	Bir nomdagи ehtiyyot qismlar uchun zaxira qiymati ( %)	Zaxira foizi (%)
X	9	2 ortiq	60
Y	19	0,1 ortiq	26
Z	72	0,1 gacha	14
	100		100

Bir qator yetakchi avtotransport kompaniyalari ya’ni, “Ford”, “Fiat”, “Volkswagen”, korporatsiyalarida qo‘llanilayotgan “Speed”, “Komputair” va hokazo ehtiyyot qismlar bilan ta’minalash tizimlarini o‘rganib chiqqan holda, hamda Qashqadaryo viloyatida avtomobillardan foydalanish sharoitidan kelib chiqib, quyidagi ehtiyyot qismlar bilan ta’minalash tizimini taklif etamiz. Bu tizimda ehtiyyot qismlar bilan ta’minalashning o‘ziga xos xususiyatlari keltirilgan. Ya’ni avtomobilarga xizmat ko‘rsatuvchi dillerlik punkti omborxonasida A va B (X va Y) guruh ehtiyyot qismlarini bir xaftalik zaxirasi saqlanadi, ya’ni A gurux ehtiyyot qism 85-90 % ni, B guruh ehtiyyot qismlar esa 10-15% ni tashkil etadi. Tuman omborlarida esa barcha A,B va C (X, Y va Z) gurux ehtiyyot qismni bir-bir yarim oylik zaxirasi saqlanadi va mos ravishda 60-80% , 14-26% va 4-14 % ni tashkil qiladi. Ehtiyyot qismlar markaziy omborida barcha guruh ehtiyyot qismlarini 3 oylik zaxirasi saqlanadi. Bu tizimda ehtiyyot qismlar bilan ta’minalashning uzluksiz jarayonini yaratish



maqsadida va keraksiz yoki kam ishlataladigan ehtiyot qismlar dillerlik punktlarida turib qolmasligi, ya’ni ortiqcha joy va mablag’ni ushlab turmasligining oldi olingan bo‘ladi. Shuningdek, barcha tashkil tashkil etuvchilar yagona kompyuterlashtirilgan tizimga ulanishi ko‘zda tutiladi.

Agar ehtiyot qismning dillerlik punktidagi meyoriy zaxirasi oz qolsa, uni EXM tizimi orqali “Boshxisoblash markaziga” bu haqida axborot yuboriladi va bu ehtiyot qism tezkor talabga ko‘ra 24 soatgacha yoki oddiy talabga ko‘ra 3 kungacha muxlat bilan dillerdik punktiga yetkazilib beriladi.

Oddiy talabga ko‘ra ehtiyot qism ta’minoti “Ehtiyot qismlar markaziy ombori” orqali va ba’zi bir ehtiyot qismlar tashish harajatlarini kamaytirish uchun ishlab chiqaruvchi korxona ombori orqali olib boriladi.

Respublikamiz xududida ishlab chiqarilmaydigan ehtiyot qismlar bilan ta’minot faqat “Ehtiyot qismlar markaziy ombori” orqali olib boriladi va bu omborga ehtiyot qismlar chet davlatlardagi korxonalardan bosh hisoblash markazi talabiga binoan keltiriladi.

Bu tizimdagи bosh hisoblash markazi avtomobil ishlab chiqaruvchi korxonada tashkil etiladi va ehtiyot qismlarga bo’lgan barcha talablar markazda yig’iladi, taxlil qilinadi. Buning natijasida, birinchidan, ishlab chiqarilgan avtomobillardan foydalanish jarayonida ishdan chiqish sabablarining son va sifat ko’rsatkichlari xaqida to’la ma’lumotga ega bo’linadi, xamda ularni ekspluatatsion ishonchligini oshirish uchun yetarli axborot va omillar yig’iladi. Ikkinchidan, avtomobillarga servis xizmati yuqori darajada va sifatlari tashkil etish imkoniyati paydo bo’ladi. Bu esa, o‘z navbatida, UzAutoMotors avtomobillariga bo’lgan ishonchni oshiradi.

Ehtiyot qismlar bilan ta’minlash tizimining sifatli va samarali ishlashi bir qator ko’rsatkichlar orqali aniqlanadi, ya’ni: etishmayotgan ehtiyot qismlar hajmi:

- birinchi martadayoq qondirilgan talabnomalar soni;
- reja asosidagi va rejadan tashqari talabnomalarni bajarish vaqt;
- bitta avtomobilga to’g’ri kelgan ehtiyot qismlar zaxirasining nisbiy hajmi;
- ishlatilmay turib qolgan ehtiyot qismlar miqdori bilan.

Ehtiyot qismlarning etishmasligi natijasida avtomobillarning turib qolish xollari ortadi. Xozirgi sharoitda bunday xollar natijasida ehtiyot qismni yo’qligi tufayli nosoz avtomobillardan foydalanish xollari bo’lib turadi.

Ehtiyot qismlar yetishmasligi sababli ishchilarning mexnatidan samarali foydalanilmaydi. Turib qolgan ehtiyot qismlarning bo’lishi esa ortiqcha tayyorlov va transport harajatlarini oshiradi. Ortiqcha mablag’ning harajatiga va aylanmay turib qolishiga olib keladi.



Aholining ehtiyot qismlarga va ashyolarga bo'lgan extiyojini qondirish uchun muntazam va maqsadga yo'naltirilgan ishlar olib boriladi, ya'ni aholining ehtiyot qismlarga bo'lgan talabi va ehtiyoji o'rganiladi. Buning uchun omborxonalardagi, baza va do'konlardagi qolgan ehtiyot qismlarning hisob-kitobi olib boriladi.

Ehtiyot qismlar va ashyolar bilan samarali ta'minlash ishlariga quyidagi omillar ta'sir ko'rsatadi.

Ishlab chiqaruvchi zavod orqali ko'p ishlatiladigan detallar zaxirasi hajmini ishlab chiqarish:

- ehtiyot qismlar ishlatilishining extimoliyligi;
- avtomobil ishlab chiqaruvchi zavodlar markaziy omborxonalaridan foydalanish;
- taqsimlovchi viloyat markaziy omborxonalarini tashkil etish va ular yordamida respublikaning turli viloyatlariga ehtiyot qismlarni barcha avtomobil modellari uchun tarqatilishi.

Viloyatimizda Avtoservis korxonalarining bugungi kundagi extiyot qismlar va materiallar yetkazib berilishini ta'minlashdagi ahvolini tahlil qilib chiqadigan bo'lsak quyidagi muammolarni keltirib o'tishimiz mumkin:

-avtoservis korxonalarini ehtiyot qismlar bilan ta'minlashni boshqarish va zarur bo'lgan ehtiyot qismlar miqdorini tahlil etilmaganligi va rejalashtirish tizimini yo'qligi;

-avtosevis korxonalarini, dillerlik punktlari ehtiyot qismlar bilan savdo qiluvchi do'konlariga markazlashtirilgan usul bilan tarqatish tizimi umuman tashkil qilinmagan, buning natijasida ehtiyot qismlarning ishonchliligi, sifati talab darajasida yetkazilmayapti;

-ehtiyot qismlarining qaysi turi qanday miqdorda zarur ekanligi xaqidagi ma'lumotlarning yo'qligi;

-ishlab chiqaruvchi zavod orqali ko'p ishlatiladigan detallar xajmini aniqlash tizimining yo'qligi;

-ba'zi turdag'i avtomobil modellari uchun ehtiyot qismlarining yo'qligi va buyurtma qilinsa esa uning qimmatligi;

Mazkur xolatdan kelib chiqib, Respublikamizdagi Avtoservis korxonalarini (ATXKS) ehtiyot qismlar bilan ta'minlashning markazlashtirilgan xolda tahlil qilishni, ularning yagona kompyuterlashtirilgan tizimga ulanishi orqali faqat zarur bo'lgan ehtiyot qismlar yetkazib berishni ko'zda tutib o'tganman.

### Xulosa

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash lozimki, avtoservis korxonalarini ehtiyot qismlar bilan ta'minlashni muntazam yo'lga qo'yish uchun, avtoservis korxonalarini ehtiyot qismlar bilan ta'minlashni boshqarish va zarur bo'lgan ehtiyot qismlar miqdorini tahlil etish va rejalashtirish tizimini tashkil etish zarur.



### Foydalanolgan Adabiyotlar:

- 1.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “O'zbekiston Respublikasi Transport vazirligi faoliyatini tashkil etish to'g'risida” 2019 –yil fevraldagi PQ-4143-sonli qarori .
2. “Mamlakatimizda zamonaviy avtomobilgarga texnik ko'rsatish uzlusizligini ta'minlashning dolzarb muammolari va ularning samaradorli yechimlari” Mavzusida Respublika ilmiy va ilmiy-amaliy Anjuman ma'ruzalar to'plami Norqo'ziyev Akmal Baxtiyor o'g'li (JizPI) - Avtoservislarning bajaradigan ishlari va quvvatiga qarab bo`linishi 153 b. Farg'ona – 2021

